

7-mavzu: Qarg'a va paxta (Nasiba Erxonova)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: o`quvchilarni ertak matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarga tabiatni va uning ne'matlarini asrashni o`rgatish, ularni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini,og`zaki nutqini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,"Klaster" metodi,savol-javob,ta'lismiy o`yinlar.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "*Toshbag`ir“ hikoyasini* o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradilar.

"Yosh aktyor“ o'yini. "Toshbag`ir“ hikoyasi o`quvchilar tomonidan sahnalashtirib namoyish qilinadi.

"To'g'risini top“ o'yini. Topishmoq aytiladi. O`quvchilar topishmoqning javobini darslikda berilgan rasmlardan topadilar.

Oltin kosada toshib turar,

Dala husnini ochib turar.

(Paxta)

III.Yangi mavzu bayoni.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:"*Qarg'a va paxta*" ertagi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Ravona bo`lmoq – yo`l olmoq

Muhlat – muddat

Mato – gazlama

"*Qarg'a va paxta* " ertagi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Kim hozirjavob?" o`yini.

1. Kuz siz uchun qanday fasl, qaysi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi?
2. Qarg'a chigitni matoga aylantirish uchun kimlarning oldiga bordi?
3. Ip yigiruvchi qanday ishlarni bajaradi?
4. Nega biz paxtani „Oq oltin“ deb ataymiz, buning sababi nima?
5. Ertakdan qanday xulosalar chiqardingiz?

"Bu qiziq!" O`quvchilar darslikda berilgan qovoq haqidagi foydali ma`lumotlar bilan tanishadilar.

"Quvnoq daqiqa!" O`quvchilar topishmoqning javobini topadilar.


O`t yemaydi bedanam,	Suv ichmaydi bedanam,
Tilla to`qim ustida	Yo`rg`alaydi bedanam.

(Tikuv mashinasi.)

O`ylab ko'rib, javob bering. Savollarga javob beradilar.


- Tikuv mashinasi qanday bo`lishini bilasizmi?
- Uni ishlatishni- chi?

- Tikuv mashinasiga o'xshagan texnik loyiha o'ylab ko'ring.
 - Uni nima maqsadda ishlatgan bo'lar edingiz?
 - Siz yaratgan qurilma insonlarga qanday foydasi tegishi mumkin?
- "Tez aytishni tez-tez ayt" o'yini.**
-



Mashq daftar bilan ishslash.

1-topshiriq. Qanday qushlarni bilasiz?



O`quvchilar qushlarning nomlarini aytadilar.

2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

Mashq daftarida berilgan savollarga javob yozadilar.

3-topshiriq. *"Kuz tabibi"* haqida nimalarni bilib oldingiz?

1. Qovoq ich qotishidan holi qiladi.
2. Ozish uchun ham qovoq foydalidir.
3. Qovoq tarkibidagi A va E vitaminlari ko`z va teri faoliyatiga, B vitamini asab tizimiga, K vitamini esa suyak, moddalar almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
4. Qovoq temir moddasiga boy.
5. Kalsiy va magniy moddasi serob.

4-topshiriq. Savollarga javob yozing.

Mashq daftarida berilgan savollarga javob yoziladi.

5-topshiriq. Ertak matniga mos rasm chizing.

Topshiriq uyga vazifa qilib beriladi.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

– Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. *Ertakni o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.*

Yaratmoqchi bo'lgan uskunangizning rasmini chizing.

8-mavzu: "Ona tilim" she'ri (Miraziz A'zam)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiyl: o`quvchilarini she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarini ilm olishga qiziqtirish, o'z ona tilini sevishga o`rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishslash, erkin va mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,"Klaster" metodi,savol-javob,ta'limiyl o`yinlar.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

Salomlashish. Davomatni aniqlash. O`quvchilarini darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "*Qarg'a va paxta*" ertagini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradilar.

"Kim hozirjavob?" o`yini. Ertak asosida savol-javob o`tkaziladi.